

**BO‘LAJAK TASVIRIY SAN‘AT O‘QITUVCHILARIGA MASHG‘ULOTLARDA
PERSPEKTIVANI QO‘LLASHNING AHAMIYATI****Talipov Nozim Xamidovich,**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,
Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Po‘latova Dilaro Abduqaxxor qizi,

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU
1-kurs magistranti*

Sag‘dullaeva Rushana Jamol qizi,

Nizomiy nomidagi O‘zMPU, talaba

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18358722>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san‘at mashg‘ulotlari orqali talabalarni perspektiva qonun-qoidalari bilan tanishtirish, shuningdek geometrik shakllar hamda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: joylashtirish, qo‘yilma, nisbat, surat tekisligi, perspektiv qisqarish, ufq chizig‘i, kompozitsiya, fazoviy kenglik, xajm, materiallik, paralel chiziqlar, tik chiziq, geometrik shakllar.

Аннотация. Данная статья посвящена одной из главной проблеме профессиональной подготовки будущих учителей основам изобразительного искусства, в частности законам перспективы. В статье раскрываются особенности геометрических тел и их рисование с применением законов перспективы.

Ключевые слова: компоновка, натура, пропорция, картинная плоскость, перспективное сокращение, линия горизонта, композиция, воздушное пространство, объём, фактура, параллельные линии, вертикальная линия, геометрические фигуры.

Abstract. Given article is devoted one of the main problems of professional training of the future teachers to fine arts bases, in particular prospect laws. In article features solids and their drawing with application of laws of prospect reveal.

Keywords: layout, nature, proportion, picture plane, perspective shortening, horizon line, composition, air space, volume, texture, parallel lines, vertical line, geometric shapes.

Kirish. Hozirgi kunda barcha sohalarida bo‘lgani kabi oliy ta‘lim tizimida, ixtisoslashgan maktablarda tasviriy san‘at o‘qitilishini yangicha tashkil etish, uning mazmuni va metodikasini yanada takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, ixtisoslashgan maktablarda iqtidorli o‘quvchilarni yanada shakllantirishda yangi o‘quv rejalar, namunaviy dasturlar tuzish ularga tasviriy san‘at orqali badiiy ta‘lim berish muhim vazifalardan biridir.

Respublikaning turli oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida talabalarga milliy san‘at namunalarini o‘qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda. Talabalarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san‘atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san‘at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida oliy o‘quv yurti fakultetlarida, ixtisoslashgan maktablarda o‘qitiladigan maxsus fanlarning

chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, pedagoglar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili. Mashhur rassomlarning ko'pchiligi avvalambor yetuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.Shishkin, V.Ye.Makovskiy, V.A.Polenov, I.Ye.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, M.Nabiev, R.Ahmedov, B.Jalolov, A.Mirzaev, A.Ikromjonov kabi mohir mo'yqalam sohiblari kiradi.

D.N.Kardovskiyning fikricha, agar biz rangtasvir bu qalamtasvirning rangda davom etishi deb aytsak, shaklning rangda talqin etilishi qalamtasvirdan boshlanadi va ijod jarayonida u bir necha marotaba to'g'rilanadi, ranglar bilan sayqallanadi. Qalamtasvir mahoratini puxta egallash, betakror rangtasvir asarlari yaratish garovidir. P.P.Konchalovskiy rangtasvirda qalamtasvirning mohiyatini ko'rib shunday yozgan: "Rangtasvirning haqiqiy usuli-bu shaklni mutlaqo aniq yetkazib berish yo'li bilan beriladigan bo'yoq surtmadir" [5.27].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy tahlil metodlari uyg'un holda qo'llanildi. Perspektiva qonun-qoidalarining bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi ahamiyatini aniqlashda ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, tasviriy san'atga oid metodik manbalarni o'rganish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlarida geometrik shakllar va hajmdor jismlarni perspektiva asosida tasvirlash jarayonini yoritishda tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlari qo'llandi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar ishlari kuzatilib, ularning perspektiva qonunlarini o'zlashtirish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, perspektivani o'qitishning samarali metodik jihatlari asoslab berildi.

Tahlillar va natijalar. Talabalarni badiiy jihatdan barkamol, Vatanga va milliy san'atga sadoqat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda tasviriy san'at xususan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida oliy o'quv yurti fakultetlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etib, yosh pedagog va olimlar zimmasiga yuksak vazifalarni belgilaydi. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilgan. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib milliy san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Tasviriy san'at fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Tasviriy san'at fanidan yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi. Hozirgi vaqtda ixtisoslashtirilgan maktablarda mutaxassislik fanlar, jumladan qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya mashg'ulotlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va

ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san'at ta'limi davlat standartlari asosida, talabalarga tasviriy san'at mashg'ulotlarini o'qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi yillarda mo'ljallangan istiqbolli yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom-pedagoglarni tayyorlash, muassasalar ish faoliyatini ilmiy uslubiy jihatdan tahlil etish.

3. Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish orqali talabalarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash va yuksak didli, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdir.

Tasviriy san'at eng ommaviy, eng xalqchil, eng hayotiy ijod ifodasi. Bobokalonlarimizning hayot yo'lini, go'zallikka bo'lgan intilishini o'tmishdan saqlab qolingana shunday moddiy madaniyat yodgorliklari orqali o'rgana boramiz. Vaholanki shunday ekan, tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarni tasviriy san'atdagi mavjud qonun-qoidalariga rioya qilishi muhim. Ushbu qonun-qoidalar narsani o'ziga qarab rasm chizish jarayonida inobatga olinishi zarur. Ana shunday qonunlardan asosiysi *perspektivadir*.

Perspektiva (lot. Rerspicio – ravshan ko'raman) – narsalarni tekislikda tasvirlash qonun-qoidalarini o'rganuvchi amaliy fandır. Racm chizayotgan kishiga nisbatan narsalarning holati, shakli, rangi ularning joylashishiga ko'ra o'zgaradi. Rassomlik san'atida kuzatish perspektivasi qo'llaniladi. Voqelikni asboblarsiz ko'z qanday ko'rsa, shunday qilib qo'lda chizishga asoslanadi. Narsaning yaqindagi qismiga nisbatan uzoqdagi qismi qanday o'zgarishini chiziqli perspektiva o'rgatasa, narsalar uzoqlashgan sari rang jixatdan ham o'zgarib borishini havo perspektivasi o'rgatadi. Perspektiva qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan. Uyg'onish davridagina perspektiva ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Paolo Uchchello, Leonardo da Vinchi, Albrect Dyurerlar perspektiva rivojiga katta hissa qo'shdilar. Perspektiva biror bir nuqtada tutashadigan chiziqlar yordamida hosil qilinadi [1.49].

Bizning jism haqidagi tasavvurlarimiz, o'sha shaklni kuzatayotgan paytimizdagi shart-sharoitlar (masofa, hajm, havo o'zgarishi, yil fasli va boshq.) asosida o'zgaradi. Jismlar shaklining ko'z o'ngimizda o'zgarishi perspektiva qonunlarga bo'ysunadi. Olisdagi jismlar shaklining perspektiv qisqarishi qadimdan ma'lum bo'lib, Uyg'onish davridayoq buyuk tasviriy san'at namoyandalaridan Leonardo da Vinchi o'zining «Tasviriy san'at haqida uch kitob» nomli asarida chiziqli hamda fazoviy perspektiva qonunlari to'g'risida ko'pgina ma'lumotlarni aytib o'tgan edi. Ushbu qonunning nazariy jihatdan rivojlanishi nemis rassomi va nazariyotchisi Albrect Dyurer nomi bilan bog'liq.

Masofa, jism masshtabining o'zgarishi, jismning ko'zdan uzoqlashishi bilan faqatgina uning kengligi va balandligi emas, balki chuqurligi ham o'zgaradi. Shuningdek jism balandligi va hajmi ham kenglikning o'zgarishi natijasida kichrayadi. Uzoqdagi narsalar xuddi yaqinlashib qolgandek va ularni ajratib turgan bo'shliq-masofa g'oyib bo'lgandek tuyuladi. Jismlar va ko'z o'rtasidagi masofa yanada ortganida jismlar bir-birlari bilan bir nuqtaga birlashib ketadi.

Jism shaklini idrok etish perspektiv tasvirga nisbatan ko'proq oldindan ma'lum bo'lgan jism tuzilishiga bog'liq. Shu sababli, biz parallel chiziqlar olislashgani sari bir-birlari bilan xuddi qo'shib ketgandek ko'rsakda, ma'lumki, bizning ko'z oldimizda turgan parallel chiziqlar kesishishi hech qachon mumkin emas.

Ufq, gorizont (yunon. Horizo – chegaralayman) – ochiq joyda yer yuzasining ko'rinadigan chegara qismi yoki yer yuzasining osmon sferasi bilan kesishgan qismi. Tasviriy san'atda ufq chizig'i ko'z balandligida joylashgan faraziy tekislik. Ufq chizig'i kuzatuvchi ko'zining darajasida bo'ladi. Shuning uchun rassom kuzatayotgan holatining o'zgarishi bilan, ufq chizig'ining joylashuvi ham o'zgaradi (tik turganda, o'tirganda va hokazo). Jismni ufq chizig'ini hisobga olgan holda chizganda uning ko'rinadigan qismi o'zgarib turadi, yani ufq chizig'idan yuqorida joylashgan jismlar kuzatilganda, ularning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganlarining esa yuqori qismi ko'rinadi [2.20].

Hajmdor jismlarni qog'ozda to'g'ri tasvirlash uchun avvalom bor geometrik shakllarning perspektiv tuzilishini o'rganib chiqish lozim. Bunda asosiy geometrik shakllar kub, silindr, shar, prizma kabi boshqa shakllar asos bo'lib xizmat qiladi va eng oddiy shakllar hisoblanadi. Eng murakkab jismlarning konstruksiyasi ham oddiy jismlarning tuzilishidan vujudga keladi. Sodda shakllar misolida jismlarning perspektiv tuzilishi qonunini osonlikcha o'zlashtirish mumkin. Oddiy geometrik shakllarni perspektiv qoida asosida chizishni to'la o'zlashtirish, tabiatdagi har qanday murakkab jismni ham hech qanday qiyinchiliklarsiz chizish imkonini beradi. Uch o'lchamli jismni qog'ozda tasvirlash tamoyillarini egallash uchun, turli jismlarni bir necha bor ufq chizig'iga nisbatan turli holatda joylashtirib, shuningdek, rassomga nisbatan rasmlarni turli burchaklarda burib chizish muhim.

Perspektivaga asoslanib, silindr, konus, kabi geometrik shakllarning aylanaga ega asoslarining perspektiv jihatdan to'g'ri tasvirlash imkoniga ega bo'lishimiz mumkin. Silindr, konusni turli holatlarda to'g'ri tasvirlash uchun, avvalo aylananing perspektiva qoidalari asosida tasvirlashni o'rganish kerak. Modelning old qismi holatini saqlagan holda, doirani gorizont diametri bo'ylab aylantiramiz. Ushbu holatda doiraning ko'rinib turuvchi qismlari ketma-ket o'zgarib, asl holati aylana, o'rta holati ellips va to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'ladi.

Gorizont holatlardagi aylanalar tasvirlovchini ufq tekisligining holatiga qarab ellips shaklida ko'rinadi. Ufq chizig'iga yaqinlashgani sari, ellipsning kichik o'qi qisqaradi

(shakl bir yuza bo‘lib ko‘rinadi) va ufq chizig‘i bilan mos keluvchi doira yuzi (kvadrat kabi) to‘g‘ri gorizonttal chiziq ko‘rinishida tasvirlanadi.

Aylana ufq chizig‘idan yuqorida yoki pastda joylashishiga qarab, ellips aylana shakliga o‘tib boradi. Agar biror-bir aylana ufq chizig‘idan yuqorida joylashsa, u holda uning pastki qismi, gorizontdan pastda joylashganida esa uning yuqori qismi ko‘rinadi. Bunda doimo shuni yodda tutish kerakki, ellips qanchalik ingichka bo‘lmasin, u katta o‘qning ikki uchida sinmaydi, shuning uchun aylanani perspektiv chizmasini yaratish jarayonida turli radiusli yoylardan foydalanish yaxshi natija bermaydi. Bu amaliyotda isbotlangan va ushbu qoidaga rioya etilmasa, aylananing perspektivadagi to‘g‘ri tasviri hosil bo‘lmaydi. Rassom ellipsning kichik o‘qiga e‘tibor qaratganida, uning olisdagi radiusi yaqindagi radiusga nisbatan qisqaroq ekanligini payqaydi. Qo‘yilmadan rasm chizilganida, doimo ushbu holatni yodda tutish kerak. Bunda kichik o‘qning rassomga yaqin turgan tarafi uzoqdagisi bilan solishtirilishi va rasm tuzilishi e‘tiborga olinishi lozim.

Bo‘lajak mutaxassis aylana va ellipsni hech bir qiyinchiliklarsiz chiza olishi kerak. Dastlab, bir-biriga perpendikulyar bo‘lgan ikki chiziq – simmetriya o‘qlari chiziladi. Ularning uchlaridan egrilik darajasi yuqori bo‘lmagan yoylar chizilib, keyin esa yoy natijasida hosil bo‘lgan burchaklarga to‘g‘ri chiziqlar tortiladi. Hosil bo‘lgan burchaklar to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazish yo‘li bilan yo‘qotiladi va doira hosil bo‘ladi. Bu yerda egrilik darajasi butun aylana bo‘yicha bir xil bo‘lishi lozim. Ellipsni chizishda ham xuddi shu usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san‘at asoslari to‘g‘risida gap borganda perspektiva qonuni bilan chambarchas bog‘liq bir qator qonun-qoidalarga murojaat qilishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

Surat tekisligi bu tasvirlanayotgan shakl bilan rassom orasidagi masofaga aytiladi. Fiziologik nuqtai nazardan qaralganda, yorug‘lik chizilayotgan buyumga tushib, fizik qonunga asosan rassomga uning shakli ko‘rinadi. Shundan keyingina, rassom uni idrok etib tasvirlashga o‘tadi. Surat tekisligi rassom bilan qo‘yilma o‘rtasidagi vosita bo‘lib xizmat qiladi. **Buyum tekisligi** deb tasvirlanayotgan buyumning joylashgan tekisligiga aytiladi. Buyum tekisligi vazifasida stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama bo‘lishi mumkin

Shakllarni perspektiv holatini to‘g‘ri tasvirlashda **ko‘rish maydoni va ko‘rish burchagi** ham asosiy qonunlardan biri hisoblanadi. Rassom tasvirlanayotgan ob‘ektdan qanchalik uzoqlashib borsa, uning ko‘rish maydoni ham kengayib boradi, bu esa tasvirlanayotgan ob‘ektning barcha qismlarini aniq ko‘rish va tasvirlashga imkon yaratadi [3.29].

Tabiatda vertikal yo‘nalishga ega bo‘lgan barcha narsalar (masalan, simyog‘ochlar, daraxtlar, binolar va boshq.) rasmda ham vertikal ko‘rinishda bo‘ladi. Tasvirlashda ularni ufq chizig‘iga nisbatan joylashuvini aniqlash muhimdir. Shuning uchun shakllarni

tasvirlashdan oldin ularning ufq tekisligidan pastda, yuqorida yoki ufq tekisligi darajasida joylashganligini aniqlash lozim.

Tasvirlanajak buyumdan (obyektdan) juda katta masofada turib, undagi hamma bo‘lak va qismlarni yaqqol tasvirlash mushkul. Aksincha, tasvirlanayotgan ob‘ektga juda yaqin masofada turib ham, undagi hamma qismlarni ko‘z bilan ilg‘ab olish oson emas. Shuning uchun har qanday tasvirni bajarayotganda chamalash orqali masofani to‘g‘ri tanlay olish, ko‘rish maydonini to‘g‘ri belgilash rassomdan mahorat talab etadi. Ko‘p hollarda rassomlar tasvirlanayotgan predmet kattaligini uch hissa ko‘paytirilganiga teng masofada turib tasvirlaydilar. Masalan, inson qomatini to‘laqonli tasvirlash uchun rassom naturadan taxminan 5–5,5 metrlik masofada turishi kerak. Shundagina u tasvirni to‘laqonli tasavvur etib vazifani aniq bajarishi mumkin. Qalamtasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyg‘unlashuvi bu xaqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo‘lishi lozim, aks holda turli bo‘yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, hajmini savodli ifodalab bermaydi. Havo perspektivasiga bog‘liq holda ranglarning nozik o‘zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rang-barang surtmalar ham, o‘z-o‘zidan fazoviy kenglikni ifoda eta olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to‘g‘ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko‘rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o‘rni ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Rangtasvirni rassomlar shunday ta’riflaydilar: «Bu yuz foiz qalamtasvir va yuz foiz rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog‘liqligidir».

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o‘rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom, qalamdan foydalanmasdan ishni bo‘yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog‘liqligini his etadi. Ya’ni buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to‘g‘ri qo‘yilishi ishni bir butunlikda yakunlanishi ko‘p jihatdan ijodkorga bog‘liqdir. Rassom qalamtasvirni puxta o‘zlashtirib olgandagina (qog‘ozga to‘g‘ri joylashtirish, narsa va buyumlarning fazoviy joylashuvi, perspektiva qoidalariga amal qilish, nisbatlarni to‘g‘ri topish, metodik ketma- ketlikda ishni tushlash va h.k) rangtasvirda ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini tahlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo‘lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo‘lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta’limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o‘zlashtirish, keyingi o‘rganish mashq jarayonlari uchun zamin yaratadi. Yosh rassom Eduardo Fioletti Venesiyaga o‘qishga kelganida «rangtasvirni mukammal egallash uchun nima qilish kerak», degan savoliga ustoz rassom Tintoretto: «Rasm chizish!» deb javob bergan. Rassom bo‘lish uchun yana qo‘shimcha nimalarni maslahat berar edingiz degan Fiolettining qayta savoliga Tintoretto: «Rasm

chizish va yana rasm chizish!» deb javob qilgan u-rasm chizish rangtasvirga nafislik va mukammallik ato etishini xaq, deb bilgan [4.257].

Buyuk haykaltarosh Mikelanjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) «har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan». «Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar ummonlarida cho'kayotganlarga najot berish omilidir, – deya ta'kidlagan Sharl Lebren.

Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan. «Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa ular rangtasvirni ustasi bo'lib yetishadi».

«Shunday narsa mavjudki u hamma san'at turlarining asosi hisoblanadi, bu-qalamtasvir. Kimki qalamtasvir san'atini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham haykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi», – deb aytgan Karachchi. «Har qanday shaklni ajoyib nafis qiluvchi ranglar emas balki aniq chizilgan qalamtasvir»- degan Titsian. «Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, san'at emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir», -deya doim takrorlagan V.Ye.Makovskiy. «Qalamtasvirni puxta bilmagan ijod ham qila olmaydi», – deb ta'lim bergan P.P.Chistyakov. I.Ye.Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan, va uni «rangtasvirni asosi», deb hisoblagan.

A.V.Vasnesov, P.P.Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, «uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir edi», deb eslaydi. A.Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida, hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha bo'lib (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlari aks etgan tasvir, grizayl), u uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab olinib, so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan.

Xulosa. Ixtisoslashgan maktablarda tarbiyalangan o'quvchilar ham tasviriy san'atning har qaysi turi bo'yicha yaratilgan ijodiy ishning qiymatiga qarab baholanadi va qadrlanadi. Yuqoridagi misollardan ko'rishimiz mumkinki, tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarni perspektiva qonun-qoidalari bilan ham nazariy, ham amaliy jihatdan mukammal o'rgatilsa, ular vazifalarni yanada xaqqoniy va sermahsul bajarishlarining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. – 703 b.
2. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. O'quv qo'llanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – 20 b.
3. Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik. – Toshkent: Musiqa. 2006. 211 b.
4. Мастера искусства об искусстве. М.1966. т 2., – 257 с.
5. Кончаловский П.П. Мысли о художественном творчестве. – М.1964, – 27 с.